



COVERAGE OF THE SCIENCE OF THE RELATIONSHIP BETWEEN VERSES IN THE SOURCES OF QUR'AN STUDIES

Robiya Najmiddinova

International Academy of Islamic Studies of Uzbekistan

Study of Islamic Studies and Islamic Civilisation

Supporting PhD student in the Department of ICESCO

ffaridam@gmail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15461903>

ARTICLE INFO

Received: 13rd May 2025

Accepted: 18th May 2025

Online: 19th May 2025

KEYWORDS

Science of relationship,
Qur'an sciences, Suyuti,
Zarkashi, Razi, balogat,
science of narration,
interpretation.

ABSTRACT

This article briefly describes the lexical and terminological meanings of the science of relationship. It also discusses in detail how this science is covered in the sources of Qur'an studies. In order to reveal the importance of the science of relationship, the author of the article cites quotes from important sources written on the sciences of the Qur'an and interpretation and the opinions of experts in the field.

QUR'ONSHUNOSLIK MANBALARIDA OYATLAR O'RTASIDAGI MUNOSABAT ILMINING YORITILISHI

Robiya Najmiddinova

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Islomshunoslik va Islom sivilizatsiyasini o'rganish

ICESCO kafedrasi tayanch doktoranti

ffaridam@gmail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15461903>

ARTICLE INFO

Received: 13rd May 2025

Accepted: 18th May 2025

Online: 19th May 2025

KEYWORDS

Munosabat ilmi, Qur'on
ilmlari, Suyutiy, Zarkashiy,
Roziy, balog'at, bayon ilmi,
tafsir.

ABSTRACT

Mazkur maqolada munosabat ilmining lug'aviy va istilohiy ma'nolari qisqacha bayon qilingan. Shuningdek, ushbu fanning qur'onshunoslik manbalarida qay tarzda yoritilgani haqida atroflicha so'z boradi. Maqola muallifi munosabat ilmining ahamiyatini ochib berish maqsadida Qur'on ilmlari va tafsir borasida yozilgan muhim manbalardan iqtiboslar va soha mutaxassislari fikrlarini keltiradi.

Kirish

Islom dinining asosiy manbasi hisoblangan Qur'oni karimni o'rganish, uni to'g'ri talqin qilish orqali undagi sof e'tiqodni, yuksak insoniy fazilatlarini hayotga tatbiq etish yosh avlodni umuminsoniy qadriyatlarga sodiq ruhda tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Qur'oni karimni mana shunday tahlil qilishda qur'onshunoslik, xususan, undagi munosabat ilmi fani alohida o'rin tutadi. Munosabat ilmi vositasida oyat va suralar o'rtasidagi ketma-ketlikning nega aynan bu tartibda ekani bilib olinadi, leksik va mantiqiy jihatdan o'zaro aloqadorlik



ochib beriladi va bu, o'z navbatida, kontekstning ma'nosini to'liq va to'g'ri anglashga yordam beradi.

Oyat va suralar o'rtasidagi stukturaviy uyg'unlikni o'rganish fanning o'rganish mavzusi hisoblanadi. Munosabat - "bir oyat ichidagi jumlaning jumlagi, bir necha oyatlar ichida oyatning oyatga hamda suraning suraga bog'lanish sababini bayon qiluvchi (fan)dir. [1:96] (Doktor Manna' al-Qatton, "Mabahis fi ulumi-l-Qur'an" 96-b, ikkinchi nashr, 1421 h/2000 m)

Asosiy qism

Qur'oni karim voqea-hodisalarni taqdim etishda o'ziga xos, alohida yo'l tutadi. Bu uslub an'anaviy tarzda, kitobni avval boblarga, boblarni qismlarga bo'lib, har bir bobda alohida mavzu haqida so'z borib, uning turli jihatlari bo'limlarda o'rganilib, bir mavzu to'liq ochib berilishiga o'xshamaydi.

Qur'onda bir sura ichida goh targ'ib **الترغيب** - yaxshiliklarga qiziqtirib, unga mukofot va'da qilish goh tarhib **الترهيب** yomonlikdan qaytarib, unga jazo borligini eslatish, bir o'rinda va'z-nasihat, boshqasida qissa kelishi, surada bir mavzu haqida ozgina so'z yuritilib so'ng boshqa mavzuga o'tish, birinchi mavzu esa, boshqa suralarda davom ettirilib o'z tamomiga etishi mumkin.

Ulamolarni bu borada izlanishga undagan narsa - Qur'oniy uslublar va bir mavzudan ikkinchi mavzuga ko'chish sabablarini o'rganish bo'lib, ular bu boradagi tadqiqotlar davomida bir surada ketma-ket kelgan turli mavzular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tizimli tarzda ochib berishgan. Mana shu urinishlar asosida mustaqil bir fan - "Oyatlar va suralar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ilmi" paydo bo'lgan.

"Munosabat" lug'atda "o'zaro yaqinlik, shakldoshlik" deganidir. Arablarda

"**فalan يناسب فلانا فهو نسبيه**" - falonchi falonchiga mos, uning munosibi degan jumla ishlatilganda "unga yaqin, o'xshash" degani bo'ladi. "Ikkinchining o'rtasida munosabat yo'q" deyilsa, shakldoshlik, o'xshashlik yo'q degani bo'ladi. Agar jumlada "**نسبت الرجل انسبه**" deyilsa, uning nasabi, kimlarga oid ekani aytilayotgan bo'ladi. [2:4] (Abu Nasr Farobiyning "al-Sihoh toji-l-lug'a" va "Sihohu-l-arobiyya" kitobidan. Daru-l-ilmi lilmallayin nashriyoti, Bayrut, to'rtinchi nashr, 1407 m/ 1987 h)

Ibn Foris aytadi: "Nun, sin va mim - bitta bitta so'z bo'lib, u bir narsani boshqa narsaga bog'lash deganidir. "Nasab" so'zi ham shundan olingan bo'lib, uning sababi unga bog'langani, u bilan bog'lab zikr qilingani uchundir. Tilda **نسبت انسب وهو نسيب فلان** deb ishlatilganda "nasabini aytdim, u falonchining nasabidan, uning nasabi" degani bo'ladi. Yana bu so'zning "to'g'ri yo'l" degan ma'nosi ham bor, buning sababi - yo'l bir biriga ulanib ketgani tufaylidir. [3:423] (Ahmad ibn Foris Roziy, "Mu'jam maqoyiysi-l-lug'a" 423 b, Abdusalom Muhammad Horun tahqiqi ostida. Doru-l-fikr nashriyoti, 1399h/ 2000m)

Munosabat ilmiga qur'onshunoslik manbalarida turli ta'riflar berilgan bo'lib, bu ta'riflar fanni turli jihatlardan ochib berishga xizmat qiladi. Xususan, Biqoiy uni shunday ta'riflaydi: "Qur'ondagi munosabatlar ilmi - undan Qur'on parchalari nega bunday tartiblangani bilib olinadigan ilmdir." [4:132] Zarkashiy o'zining mashhur "Burhon fiy ulumi-l-Qur'on" asarida, "Munosabat - ma'qul ishdir, agar u aqlarga ro'baro' qilinsa, qabul qilinadi", - deya munosabatni izohlaydi. [5:36]

Doktor Muhammad Solim abu Osiy Zarkashiyning gapiga qo'shimcha qilib aytadi: Shunday ekan, munosabatning qabul qilish sharti - uni aql qabul qilishi kerak. Mana shu



jihatdan biz bu tadqiqotda faqat aql mantig'i qabul qilgan narsaga tayanamiz – u tasdiqlagan narsani olamiz, bunda bizga aqlga to'g'ri kelmaydigan narsani inkor qilishimiz zarar qilmaydi, bunda muammo yo'q. Aytganimizdek – munosabat – ijtihodga bo'ysundirilgan ilmdir. [6:137]

(Muhammad Solim abu Osiy “La ya'tuna bimislih” 137-138-betlar, “Haram” nashriyoti, birinchi nashr. 2017-m)

Yuqorida o'tgan dalillardan ma'lum bo'ladiki, lu'g'aviy ma'no va istilohiy ma'no o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjud. Ikkala ma'noning ham taqozosi – bir oyat o'zidan keying oyat bilan tug'ishganlardek, ularning o'rtasi qaysi bir tur bilan bog'lanadi, bu nasabdoshlar bir-biri bilan o'xshab ketishi kabidir. Bu oyatlar bir-biri bilan bir xil degan ma'noni bermaydi, albatta. Goho ikki oyat o'rtasida tazo d – o'zaro qarama-qarshilik yoki ma'noda uzoqlik bo'lishi mumkin, ammo muhimi – ikki oyat o'rtasida aloqa-bog' yoki yaqinlikning borligi. Bu kabi munosabatlar ulamolarga ayon bo'lib, ular buni ochib beradimi – yo'qmi, baribir oyatlar o'rtasida uyg'unlik bor deb qaraladi. Bu ilmda aql-idrok o'zaro musobaqalashadi. Oyatlar va suralar o'rtasidagi bog'liqlik va aloqadorlikni anglash va tafakkur qilish zarur. [7:12] (doktor Somiy Ato Hasan, “Oyatlar va suralar o'rtasidagi o'zaro munosabat”, 12-b, Eordaniya universiteti tadqiqot jurnali, 2008-yil, 1-son)

Munosabat ilmi – Qur'on ilmlarining eng muhimlaridan bolib, uning asosi Allohning kitobini tafakkur qilish hisoblanadi. Qur'onda uni chuqur mushohada qilish va tushunishga undovchi oyatlar mavjud:

“Biz senga nozil qilgan Kitob – muborakdir. Aql egalari uning oyatlarini tadabbur qilishlari va eshlari uchundir.” (Sod surasi, 29-oyat)

“Qur'onni tadabbur ila o'ylab ko'rmaydilar mi? Yoki qalblarida qulflar bormi?” Muhammad, 24-oyat)

Biqoiy munosabat ilmi haqida gapirar ekan, shunday deydi: “Obyekti – talab qilingan narsaning (Kalomning) qismlari va uning tartib jihatidan o'zaro munosabatini o'rganishdir”, - deydi. [8:142]

Bu bog'liqlikning qaysi turida bo'lishidan qat'i nazar, munosabat ilmi deganda Qur'onning qismlari, oyatlari va suralari o'zaro tartibi, uyg'unligi, mos kelishi hamda bir-biriga bog'lanish jihatlarini o'rganadigan fan tushuniladi.

Qur'on suralari yoki bir suradagi oyatlar o'rtasidagi bo'lsin munosabat ilmi – ilmlarning eng ahamiyatli va sharaflaridan, undagi masalalar eng kerakli masalalardir chunki u Qur'on ilmlaridan bir ilm hisoblanadi. U aqlarni charxlovchi, so'zchining so'zidagi qadri uning ila bilinuvchi, oyat va suralar o'rtasida uyg'unlik va bog'liqlik orqali Qur'onning mavzu jihatdan yaxlitligi ochib beriluvchi fandır.

Oyatlarini munosabat ilmi jihatdan ochib berish nozik tushunchani, ijtimodiy mahoratni talab qilgani tufayli, barcha tafsirlarda ham uchrayvermaydimufassirlar unga ko'p ham e'tibor bermagan. Bu ilmdan eng ko'p keltirganlardan biri – Faxriddin al-Roziy bo'lib, u o'z tafsirida: “Qur'onning nozik ma'nolarining ko'pi o'zaro ketma-ketlik va bog'lanishda yashirin”, deya ta'kidlaydi va oyatlarni tafsir qilishda mana shu jihatga alohida e'tibor qaratadi. [9:110] (Faxriddin al-Roziy, “Mafatihul-g'oyb”, 10-juz, 110-bet, “Daru ihyai-l-turosi-l-arabiy”, Bayrut) Manbalardagi fikrlar shuni ko'rsatadiki, nahv ilmi maoniy va bayon ilmi bilan qanchalar yaqin bo'lsa, tafsir va munosabat ilmi ham shu qadar yaqindir. Bu jumlaning ma'nosi shuki, munosabat ilmi – tafsir ilmining eng nozik, yuksak cho'qqisidir.



Qur'onshunoslik manbalarida oyatlar va suralarning tartibi va bu ketma-ketlik sabablarini o'rganishning ahamiyati zikr qilinib, xususan, ushbu ilm vositasida Qur'onning bo'laklari bir-biriga qanday bog'langanligi oydinlashishi aytiladi. Badriddin Zarkashiy ta'kidlaganidek, "Kalom bo'laklari biri-biriga jipslangan bo'lib, mana shu jipslik tufayli uning uyg'un bo'laklari o'zaro birikkan mustahkam binoga o'xshaydi." [10:36] Ushbu tartib va uyg'unlik sabablari munosabat ilmida o'rganiladi.

(Qavs ichidagi ibora Zarkashiyning "Burhon fi ulumi-l-Qur'on" kitobi, 36-bet):

Shuningdek, bir suraning o'zidan oldigisi bilan yoki bir oyatning o'zidan oldingisi bilan bog'liqligini ochib berish – Qur'onni tafsir qilishda muhim qadam hisoblanib, sura yoki oyatning maqsadini ochib berishga xizmat qiladi. Qolaversa, sura yoki oyatning o'zidan avvalgisi bilan munosabatini o'rganish oyatdan anglashilib turgan ikki ma'noning, turli qarashlarning qay biri kuchliligi borasida tarjih (afzalligini aniqlash) qilishda yordam beradi. Agar tomonlarning qarashlari kuch jihatdan teng bo'lsa, munosabat ilmi ulardan birini tanlashga yordam beradi. Bu esa tafsirshunoslik manbalarida qo'llaniladigan ishdir.

Yana bir muhim jihatlardan biri - sura yoki oyatning o'zidan oldingisi bilan munosabatini bilish Qur'on tafsiridagi chigalliklarni bartaraf etishda yordam beradi. Shu orqali mufassirlar bir to'xtamga kelishda qiyinchilikka duch kelgan oyatlar ma'nolari shu tariqa ochiladi. Soha mutaxassislari munosabatni bilish orqali mufassirlar ma'no berishda qiynalgan o'rinlarda to'g'ri to'xtamga kelish mumkinligini ta'kidlashgan.

Abdulhamid Farohiy (haqida ma'lumot beriladu) aytadi: "(Qur'on) hikmatlari va (undagi) ishlardan ko'zlangan maqsadning askari nazm (munosabat ilmining yana bir nomi "Nazmu-l-Qur'on" *نظم القرآن*) bo'lib, u lug'atda "tartib, tizilish" ma'nolarini anglatadi) dalolatlari ostida yashiringan ekan, kimki unga beparvo bo'lsa, Qur'on ma'nolarining askariga beparvolik qilgan bo'ladi." [11:1267] (Abdulhay Hasaniy Tolibiy. Nuzhatu-l-xovahir va bahjatu-l-masaami' va-l-nazoir. Bayrut:1999 m/ 1420 h. – B. 1267-1268.)

Doktor Manna' al-Qatton esa: "Sababi nuzul ilmini bilishning oyatning ma'nosi va tafsirini bilishda qanday o'rni bo'lsa, xuddi shunday oyat va suralar o'rtasidagi munosabat ilmini bilish ham chiroyli ta'vil qilish va nozik tushunishga yordam beradi", deya ta'kidlaydi. [12:96] (Manna' al-Qatton. Mabahis fi ulumi-l-Qur'an. Bayrut. 1998 m – B.96.

Xulosa. Qur'onshunoslik manbalarida munosabat ilmi oyat va suralar o'rtasidagi mantiqiy, mazmuniy va tartibiy bog'liqlikni o'rganuvchi muhim yo'nalish sifatida e'tirof etilgan. Ibn Foris, Zarkashiy, Roziy, Biqoiy kabi olimlar bu ilmning lug'aviy va istilohiy asoslarini yoritib, uni tafsir ilmining nozik, lekin zaruriy tarkibiy qismi sifatida ta'riflaganlar. Ushbu manbalarda munosabat ilmi Qur'on tartibining hikmat va ilohiy maqsad asosida kelganini isbotlashda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

References:

1. Manna' al-Qatton. Mabahis fi ulumi-l-Qur'an – ikkinchi nashr, Bayrut, 1421-h/2000-m.
2. Abu Nasr Farobiy. Al-Sihoh toji-l-lug'a. – Daru-l-ilmi lilmallayin, Bayrut, to'trinchi nashr, 1407-h/ 1987-m.
3. Abu Nasr Farobiy. Sihohu-l-arobiyya. – Daru-l-ilmi lilmallayin, Bayrut, to'trinchi nashr, 1407-h/ 1987-m.



4. Ahmad ibn Foris Roziy. Mu'jam maqoyysi-l-lug'a. –Doru-l-fikr nashriyoti, 1399-h/2000-m.
5. Muhammad Solim abu Osiy. La ya'tuna bimislih – Haram nashriyoti, birinchi nashr, 2017-m.
6. Somiy Ato Hasan. Oyatlar va suralar o'rtasidagi o'zaro munosabat. – Eordaniya universiteti tadqiqot jurnali, 2008-yil, 1-son.
7. Faxriddin al-Roziy. Mafatihu-l-g'oyb. – Daru ihyai-l-turosi-l-arabiy, Bayrut.
8. Abdulhay Hasaniy Tolibiy. Nuzhatu-l-xovatir va bahjatu-l-masaami' va-l-nazoir. – Bayrut, 1420-h/1999-m.
9. Badriddin Zarkashiy. Burhon fi ulumi-l-Qur'on.